

**ALISHER NAVOIYNING “MAJOLIS UN-NAFOIS” ASARINI O‘RGANISH**

Utayeva Dilobar Utkir qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: S.Sh.Pardayev

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasini haqida ma'lumot beriladi. Navoiyning zamondosh shoir va olimlari haqida, Amir Temur va Temuriylar haqida, Husayn Boyqaro haqida ma'lumotlar keltirilgan. Boshqa olimlarning tazkira haqidagi qarashlari ham aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tazkira, "Majolis un-nafois", Alisher Navoiy, olim

Buyuk shoir, mutafakkir, qadimgi turkiy tilning asoschisi bo'lgan Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug'ilgan. Alisher Navoiyning ijod va she'riyatdagi birinchi ustozlari tog'alari Mirsayid Kobuliy va Muhammadali G'aribiyilar hisoblanadi. Navoiy ular haqida "Majolis un-nafois" tazkirasida shunday yozadi: Kobuliy haqida "Yaxshi ta'bi bor erdi, turkchada mayli ko'proq erdi" deydi. G'aribiy haqida esa "Xush muxovara (xushsuhbat) va xushxulq va dardmand yigit erdi. Ko'proq sozlarni yaxshi chalar erdi. Musiqqa ilmidin ham xabardor erdi" deb to'xtalib o'tgan. Navoiyning "Majolis un-nafois" asari tazkira bo'lib, unda XV asrda Xuroson va Movarounnahrda yashagan adiblardan 459 tasi haqida so'z ketadi. "Majolis un-nafois" ("Nafis majlislar") 1491-yilda birinchi tahriri vujudga kelgan. 1498-yilda esa asar muallif tomonidan qayta to'ldirilgan. Mazur tazkirada Husayn Boyqaro tavalludidan, ya'ni 1438-yildan boshlab asar yozilgan vaqtgacha yashab, ijod qilgan adiblar haqida ma'lumotlar keltirgan. "Majolis un-nafois" 8 majlisdan iborat bo'lib, muqaddima, majlislar va xotimadan tashkil topgan.

Tazkira tuzilishiga ko'ra sakkiz majlis uchga bo'lib tasnif qilinadi:

1. I-II majlislar. Bunda nomlari keltirilgan shoirlar bilan Navoiyning uchrashgan-uchrashmaganligi asos qilib olingan.

2. IV-VI majlislar. Bu qismlar she'riyatga bag'ishlangan. Shoirlar, fozillar va Xurosondan tashqari hududlarda yashovchi donishmandlar haqida gap ketadi.

3. VII-VIII majlislar. Yettinchi majlis she'r va musiqaga oshno bo'lgan Amir Temur va Temuriylar haqida. Sakkizinchi majlis esa birgina Husayn Boyqaroga bag'ishlangan.



Temuriy shahzodalarning ko'pchiligi san'at va adabiyotga qiziqqan. Alisher Navoiy Shohruh Mirzoning o'g'li Boysung'ur haqida "Majolis un-nafois" asarida shunday yozadi: "Boysung'ur Mirzo xushta'b va saxiy, yosh, hunarparvar podshoh edi. Xattot va naqqosh va sozanda go'yandadin buncha benazir kishikim, aning tarbiyatidin orag'a kirdi, ma'lum emaskim, hech podshoh zamonida paydo bo'lmish bo'lg'ay. Ulcha imkoni bor, olamki xushxulq bila o'tkardi." [1: 166]

Alisher Navoiy turkiy tilda birinchilardan bo'lib "Xamsa" asarini yozdi. "Xamsa" yozishga ko'plab shoirlar harakat qilishgan, lekin bunga erisholmagan. Navoiy tazkirasida shunday shoirlar nomlariga ham to'xtalib o'tgan. Bulardan biri Mavlono Kotibiydir. "Majolis un-nafois" asarida shunday deyilgan: "Oxiri umrida "Xamsa" ga tatabbu bunyod qildi va anda da'volar zohir qilibdur. Go'yo bu sababdin itmomig'a tavfiq topmadi." [1: 15] Bundan ko'rinadiki Mavlono Kotibiy "Xamsa" yaratishga harakat qilgan, lekin uni oxiriga yetkaza olmagan. Navoiygacha yozilgan Xamsalar fos tilida edi. Uning qanchalar qalami o'tkir ijodkor ekanligini turkiy tildagi ilk "Xamsa" muallifi ekanligidan ham bilsak bo'ladi. Alisher Navoiy o'ziga ustoz deb bilgan ulug' mutafakkir Mavlono Lutfiy haqida tazkirada shoirning 99 yil umr ko'rgani, hayotining so'nggida forsiyda "Oftob" radifli g'azalini yozgani va zamon shoirlari unga tatabbu bitganligi hamda Hirot chekkasidagi Dehikanor degan joyda darn etilganligi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.[1:60-61 b]

XV asrda yashab ijod qilgan shoir, adabiyotshunos Faxri Hirotiy Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarini "Latoyignoma" nomi bilan forschaga tarjima qiladi. Faxri Hirotiy asarga bir nechta bob ilova qilib "Majolis un-nafois" ga kiritilmagan 189 shoir haqida ma'lumot beradi. Tazkirachilikda Navoiy ijodini davom ettirgan. [2]

She'riyat mulkinging sultoni bo'lgan Alisher Navoiy butun umrini, ijodini xalq tinchligiga, baxtli va osoyishta kunlar uchun sarfladi. Har bir asarida ilm-fanga muhabbat, adolat yaqqol sezilib turardi. Bu haqida shoir shunday deydi: "Umidim uldurki va xayoling'a andoq kelurki, so'zkm martabasi avjdan quyi enmagay va bu yozgan asarlarimning tantanasi allows darajadan o'zga yerni yoqtirmag'ay" degan edi.[3:349]

Chindan ham shoir asarlari hali hanuz yuqori darajadagi mukammal asarlar hisoblanadi. Alisher Navoiyning boy ijodiy merosi ichida bu tazkira alohida ahamiyatga ega. Asar yozilishidan maqsadni Navoiy asar muqaddimasida shumday izohlaydi: " bu xujasta zamon va farxunda davron shuaro va xushta'blarikim sulton Sohibqiron (Husayn Boyqaro) yumni davlatidin va natijai tarbiyatidin she'ring ko'prak uslubida, bataxisis g'azal tavrada barchadin dilosoroq va nishot afzoroqdur,



tarkibi salosat va latofatin burung'ilarga yetkuradurlar va ma'ni nazokat va g'arobatidin ulcha sharti bor, bajo kelturadurlar, otlari ul jamoat zumrasida bo'lmoqdin mahrum va so'zlari ul tartib va qoidada noma'lum uchun shikasta xotirg'a va sinuq ko'ngulg'a andoq keldikim, bir necha varaq bitilgay va bu asr shuarosi bila bu davr zufarosi otin anda sabt etilgay, to bu niyozmandlar ham burung'i shuaro akobiri zaylida mazkur bo'lg'aylar va bu payravlar ham ul rahbarlar xaylig'a qo'shulg'aylar." [4: 13-tom]

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasida ko'plab o'sha davr adiblari haqida ma'lumotlar keltiradi. Asarni to'liq tamomlab, mukammal holda Husayn Boyqaroga taqdim etadi. Navoiy tazkirada shoirlarga tavsif berar ekan ularning xarakterlari, axloqiy olami, bilimi, ma'naviy dunyosi bilan bir qatorda ularning nuqsonlari, kamchiliklari haqida ham yozadi. Jumladan, Sayfiy, Hofizi Sa'd kabi shoirlarni ichlikikka mukkasidan ketgan deya, Sayid Qurazo, Abu Nasr, Shohquli, Uyg'ur kabilarni fitnachi, bezori deya ta'riflaydi. Mazkur tazkirada Navoiy badiiy ijodning asosiy mohiyatini ochib beruvchi shakl va mazmun masalalariga ham to'xtalib o'tadi. Mazmunsiz shaklga va shaklsiz mazmunga erishib bo'lmaydi. Navoiy asarda shaklga e'tibor bermaslikni qoralaydi. Asarda g'oya va shakl bir bo'lsagina asar qiymati oshadi. Navoiy tazkirada bir qancha shoirlarning she'rlari mantiqsizligi, ma'nosizligini tanqid qiladi. U Qobiliy degan shoir haqida she'rlarining "hech mazasi yo'qtur" deb yozadi va fikrining isboti sifatida bir necha misralardan namunalar keltiradi. Navoiy she'riyat qoidalariga amal qilinmay yozilgan ko'plab asarlarni tanqid ostiga oladi.

Bundan tashqari Navoiy tazkirada turkiygo'y shoirlar haqida ham keng ma'lumotlar berib o'tadi. Ammo turkiygo'y shoirlar kamchilik bo'lib, 459 ijodkordan 39 tasi turkiy tilda ijod qiluvchilardir. Ular orasida zullisonaynlari ham bo'lgan. 12 ijodkor esa shoh, shahzoda va mavqeyi baland shaxslar edi. Navoiygacha yozilgan tazkiralar fors-tojik tilida yaratilgan. "Majolis un-nafois" turkiy tildagi badiiy asar qoidalariga to'la javob beradigan mukammal asardir.

Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning boy va ko'pyoqlama ijodiyotida "Majolis un-nafois" alohida ahamiyatga egadir. Bu asar o'z tipi e'tibori bilan sharqda namunalari oz bo'lmagan "Tazkirat ush-shuarolar" jumlasiga kiradi. Bu kabi tazkiralarda, odatda, ma'lum davrda yashagan shoirlarning qisqacha tarjimayi hollari yoki hayotlarida muhim sanalgan ba'zi faktlar va voqealar ham ularning ijodiyotlaridan bir-ikki qit'a namuna tariqasida ko'rsatilib o'tiladi. Hozirgi ma'noda adabiyot tarixi va adabiy tanqidchilik mavjud bo'lmagan zamonlarda tazkira mualliflari bh kamchilikni juda ibtidoiy-sodda shaklda bo'lsa ham to'ldirishga



tirishganlar. Arab va eron tillarida tazkirakar Navoiyga qadar mavjud bo‘lib kelgan bo‘lsa ham, lekin Navoiyning "Majolis un-nafois"igacha o‘zbek tilida biror asarning yozilganini bilmaymiz." [5]

"Majolis un-nafois" chindan ham yuqori saviyadagj asar hisoblanib, hozirgi kumga qadar mavqeyini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlarЖ

1. Alisher Navoiy "Mukammal asarlar to‘plami" 20 Tom. T. Fan. 1997
2. Vohidov "Majolis un-nafoisning tarjimalari" T-1984
3. Mallayev. "O‘zbek adabiyoti tarixi" T-1976.
4. Alisher Navoiy "Asarlar" 15 tom. Toshkent. Fan. 1997
5. Oybek "Majolis un-nafois asari haqida" Toshkent-1979